

OGAHIY ASARLARIDA ANTROPONIMLAR

*Abdullayeva Mardona Otanazarovna,  
Urganch davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiy asarlaridagi antroponimlar tahlil qilingan bo‘lib, ularning lingvopoetik xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** antroponim, badiiy matn, leksik birlik, allyuziv nom, pretsedent birliklar.

**Annotation:** This article analyzes the anthroponyms in Ogahi’s works and reveals their lingvopoetic features based on examples.

**Key words:** anthroponym, literary text, lexical unit, allusive noun, precedent units.

Badiiy matn tahlilida onomastik birliklarning o‘rni alohidadir. Ayniqsa, mumtoz adiblar asarlari ijodida qo‘llanilgan atoqli otlarni o‘rganish tilshunoslik uchun muhim ma’lumotlarni taqdim qiladi. Biz ushbu maqolamizda Ogahiy ijodida kam o‘rganilgan masalalardan biri - antroponimlar yuzasidan fikr yuritishga harakat qildik.

Antroponimlar xalqning tarixi va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning ma’no, yuzaga kelish, rivojlanish, qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O‘zbek tili antroponimlarining nazariy masalalari bo‘yicha teran tadqiqotlar olib borgan olim E.Begmatov badiiy matndagi onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek filologiyasidagi dolzarb va yangi masalalardan biri ekanligini ta’kidlab, bu borada quyidagi fikrlarni aytadi:”Bunday tadqiq antroponomik materiallarga nafaqat lisoniy jihatdan, balki etnolingvistik, etnomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan ham yondashishni talab qiladi”. [Бегматов, 2013: 261].

Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo‘llanganida esa yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi.

“Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma’lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish” usuliga allyuziya deyiladi [Йўлдошев, 2008: 124]. Allyuziya ko‘rsatkichi, odatda, mashhur nomlar, jumlar yoki matnlar, ya’ni pretsedent birliklardan iborat bo‘ladi”. [Худойберганова, 2005: 19]

O‘zbek adabiyotini kuzatish shundan dalolat beradiki, allyuziv nomlar, ayniqsa, she’riyatda muhim o‘rinni egallaydi. She’riy matnda qo‘llangan allyuziv nomlar tahlili muayyan ijodkor asarlari onomastik ko‘lami haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Jumladan, N.Husanov mumtoz adabiyotdagi antroponimlarning

ramziy ma'noda qo'llanilishi haqida to'xtab, quyidagilarni ko'chma ma'noda ishlatilgan antroponimlar sifatida o'rganadi: *Farhod*-ko'ngil ma'nosida, *Yusuf husn*, *Yusuf soniy* - ma'shuqa ma'nosida, *Bahman*-qahraton qish ma'nosida, *Hurmuz*-kun chiqish ma'nosida kabi. Olim antroponimlarning turli narsa va hodisalar ma'nosida qo'llanilishini an'anaviy istiora termini bilan nomlagan [Хусанов, 2014: 145].

Ogahiy ijodida ham antroponimlarning allyuziv nom sifatida ishlatilganini ko'rishimiz mumkin.

Buyuk shoir va mohir tarjimon Ogahiy ijodini kuzatar ekanmiz, dastavval, uning she'riy asarlarida Yusuf obrazining ko'plab uchrashi diqqatimizni tortadi.

*Yusuf* - sharq afsonalarida go'zalligi bilan shuhrat qozongan adabiy asar qahramoni, "Yusuf va Zulayho" dostonining bosh qahramoni. Rivoyatlarga qaraganda, Yusuf Ya'qub payg'ambarning o'g'li bo'lgan [Огахий, 1971: 376] Aslini olganda, mumtoz she'riyatimizda diniy-afsonaviy timsollar (Muso, Iso, Sulaymon, Dovud, Luqmon, Xizr, Yusuf kabi) ga murojaat qilish tez-tez uchrab turadigan hodisa. Poetik timsol sifatida ulardan foydalanishda Ogahiy qanday maqsadni ko'zda tutadi? Birinchidan, folklor asarlarida ham, yozma adabiyot namunalari ham Yusuf obrazi faol namoyon bo'ladi. Zero, Yusufga Olloh tomonidan (ko'rk, qiliq, kechirmaklik, yalovochlik, tush ta'biri, kuni so'z, avoqibat, umur, ta'vili suxuf kabi) unga karomat qilingan edi [Рабғузий, 1990: 101]. Ogahiy mazkur insoniy sifatlarni Yusuf timsoli orqali o'z she'rlari qatiga singdirib yuborishga intiladi. Ogahiyning "Kom hosildur mango" g'azalida shunday bayt bor:

Yo'qsa maqsad *Yusufi* ravshan jamoli mehrining,

Partavi birla munavvar chohi bobildur mango [Огахий, 1971: 82].

"Ey sho'x" g'azalida:

Borib *Yusuf* jahondin, o'rniga san,

Bu kun ko'si xilofat cholding ey sho'x [Огахий, 1971: 151]

baytini uchratamiz.

Ogahiy ijodida yana quyidagicha antroponimlardan foydalanilgan:

Yetib qahridin bim *Bahromg'a*,

Bo'lub muddao qulluqi Somg'a [Огахий, 1971: 41]

*Bahrom* - Qadimiy Eronda hukmronlik qilgan sosoniylar sulolasining o'n to'rtinchi hukmdoridir. Afsonalarga ko'ra, go'r (yovvoyi eshak) ovi bilan ko'p shug'ullangan bo'lib, tarixda "Bahrom go'r" nomi bilan shuhrat topgandir [Огахий, 1971: 377]

Xosiyat ichra har so'zi jonbaxsh o'lur *Iso* kibi-

Kim, topsa jon la'li labing guftori ruh afzosidin. [Огахий, 1971: 369]

*Iso* - islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlardan biri bo'lib, teologik adabiy nazariyalarga ko'ra, Iso payg'ambarda o'liklarga jon bag'ishlovchilik xislati bo'lgan. Mumtoz adabiyotda Masih, ya'ni jon beruvchi, jon ato etuvchi, deb ham ataladi.

Kulbai vayronim etti ganji *Afridun* kibi,

Goh injular sochib, gohi to'kub marjon ko'zim. [Ogaxiy, 1971: 356]

*Afridun, Faridun* - qadimgi Eronda hukmdorlik qilgan afsonaviy peshdodiyalar sulolasining beshinchi hukmdori bo'lib, Jamshidning nabirasi bo'lgan, deb naql qilinadi. [Ogaxiy, 1971: 377]

La'li birla obihayvonidin etsa *Xizr* bahs,

Onga yuz hujjat bila yetkurgusi ilzom xat. [Ogaxiy, 1971: 260]

*Xizr* - musulmon e'tiqodiga ko'ra, mangu tirik payg'ambar. Mumtoz adabiyotda yo'lidan adashgan insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'ldan qaytaruvchi zot hisoblanadi.

Muhib gar Ogahiyg'a bo'lsa ul xo'blar shahi tong yo'q-

Ki, husni nutq ila *Mahmud* mahubi *Ayoz* o'lmish. [Ogaxiy, 1971: 241]

*Mahmud va Ayoz*- Sharq adabiyotida keng tarqalgan afsonalardan biri bo'lib, X asrda hukmdorlik qilgan Mahmud G'aznaviy bilan uning mulozimlaridan Ayoz o'rtasida bo'lib o'tgan munosabatlarni naql etadi. [Ogaxiy, 1971: 377]

Sochi savdosida gar etsam, la'lig'a tong ermas-

Ki, bu zulmat ichida necha *Iskandar* odoshibdur. [Ogaxiy, 1971: 473]

*Iskandar* - Navoiy asarlarida tilga olingan taniqli va mashhur shoh Iskandar Zulqarnayndir. Ushbu obrazga nisbatan tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy prototip hisoblansa-da, undan keskin farq qilib, ezgu xislatli hukmdor sifatida talqin qilinadi.

Necha dono esang ham urma g'ayb asroridin damkim,

Oning fikrida ojiz yuz *Arastu*, ming *Falotundur*. [Ogaxiy, 1971: 164]

*Arastu (Aristotel)* - miloddan ilgari IV asrda yashagan mashhur Yunon faylasuflaridan biri. [Ogaxiy, 1971: 377]

*Falotun, Aflotun (Platon)*- miloddan ilgari IV asrda yashagan mashhur Yunon faylasuflaridan biri. Sharq manbalarining naql qilishicha, Aflotun faylasuf Suqrot (Sokrat)ning shogirdi bo'lib, Arastu (Aristotel)ning ustozidir. [Ogaxiy, 1971: 377]

Ofarinashg'a *Sulaymondek* topib hukming nufuz,

Tobi-u farmon-u amring jumla olam bo'ldi tut. [Ogaxiy, 1971: 118]

*Sulaymon* - Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri.

Jaholat bir davosiz dard erur johilg'a bilgilkim,

Quloq solmas iloj dardig'a gar ochsa *Luqmonlab*. [Ogaxiy, 1971: 99]

*Luqmoni hakim* - Kayoniy shoh Kaykubod davrida yashab o'tgan mashhur tabib va donishmand.

Xiradur sansiz ko'zim ko'rguz yuzingnikim,erur

Ko'rsa Yusufning jamolin diyda *Ya'qub* xo'b. [Ogaxiy, 1971: 102]

*Ya'qub* - islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambar. Rivoyatlarga ko'ra, Ya'qub a.s Yusuf a.s.ning otalari bo'lib, farzandining dog'ida yig'layverganidan ko'zlari ko'r bo'lib qolgan ekan. Baytda shunga ishora bor.

Oqibat ichkung fano zahrin ajal zindonida,

Bas havoyi ishrati Doro-u *jomi Jamdin* ot. [Огаҳий, 1971: 117]

*Jamshid* - qadimiy va afsonaviy Eron shohi, asarlarda qisqartirilib Zam deb atashgan. Badiiy adabiyotda bu obraz jomi Jam birikmasi orqali ishlatiladi. Afsonalarga ko‘ra, Jamshid podshohning shunday bir jomi, may ichuvchi kosasi bo‘ganki, bu jom o‘zida yetti iqlimni ko‘rsata olgan.

Hotami zarrin bo‘lub ilkingda raxshon oftob,

Ismi a‘zam anda yaksar naqshi *Hotam* bo‘ldi tut. [Огаҳий, 1971: 118]

*Hotam* - saxiyliги bilan nom qozongan arab qabila boshliqlaridan birining nomi. Arsai olamg‘a sig‘may lashkaring kasrat aro,

Har biri oning shijoat ichra *Rustam* bo‘ldi tut. [Огаҳий, 1971: 118]

*Rustam* - qadimiy Eronning afsonaviy qahramonlaridan biri. Firdavsiy - Rustamning devlar, fillar bilan olishib, odamlarni ularning tajovuzidan qutqarganligi naql etiladi. [Огаҳий, 1971: 376]

Yer yuzining naqdi-yu ostida *Qorun* moli ham

Jam o‘lub sarto qadam ganjingg‘a munzam bo‘ldi tut. [Огаҳий, 1971: 118]

*Qorun* - tavrotda Qoriy deb ataladi, afsonalarga ko‘ra, behisob boylikka ega bo‘lgan shaxs. Sharq adabiyotida Qorun boylik timsoli sifatida ishlatiladi. [Огаҳий, 1971: 375]

Ki ko‘b rahravni nokom o‘tkurubdur,

Na topti *Nuh* maqsudin na *Yofis*.

*Nuh* - sharq afsonalariga ko‘ra, to‘fonga uchragan paygambarlardan biri. To‘qqiz yuz ellik yil yashagan va to‘fondan so‘ng yer yuzida hayotni, jonli dunyoni tiklagan. [Огаҳий, 1971: 376]

*Yofis*, *Yofas* - diniy rivoyatlarga ko‘ra, Nuh payg‘ambarning katta o‘g‘li bo‘lib, turk qavmlari shu o‘g‘lidan tarqalgan emish. [Огаҳий, 1971: 376]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ogahiy she‘riyatida antroponimlarning tabiatiga ko‘ra tarixiy, mifologik hamda xayoliy-to‘qima turlari keng qo‘llanilgan. Shu bilan birga, shoir ijodida qo‘llangan onomastik birliklar, ayniqsa, antroponimlarning tadqiqi shu davrdagi tarixiy voqelik va shart-sharoit hamda milliy an‘analarni o‘zida aks ettiruvchi manbalarni o‘rganish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик, I жилд. -Тошкент, 1971.
2. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. 1-китоб. -Тошкент, 1990, 101-бет.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. -Тошкент: Фан, 2013. -Б.261.
4. Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент: Фан, 2008. -Б.124.
5. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент: Турон замин зиё, 2005. -Б.19.
6. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. -Тошкент: Наврўз, 2014. -Б.145.